



Reflections on the human image in the Jarkutan terracotta figurine

Ulugbek SHAYDULLAEV¹

Termez State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025

Received in revised form

15 May 2025

Accepted 15 June 2025

Available online

25 June 2025

Keywords:

Jarkutan terracotta figurine, Sapalli culture,
Kuzali,
Molali,
Buston,
Oxus civilization,
Bactria-Margiana Archaeological Complex (BMAC),
Gonur Tepe,
Mirshodi,
Anau,
Sarazm-4.

ABSTRACT

The Bronze Age monuments of ancient Bactria are characterized by a developed urban culture, along with socio-economic and religious processes. If one may say so, the cultural processes are uniquely defined by the development of sculptural art. This article illuminates the religious, spiritual, artistic-stylistic, and anthropological features of the human terracotta sculpture discovered at the Jarkutan site.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss3-pp231-238>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Jarqo'ton terrakota haykalchasida inson obrazi xususida mulohazalar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Jarqo'ton terrakot-haykalchasi,
Sopolli madaniyati,
Ko'zali,
Mo'lali,
Bo'ston,
Oks sivilizatsiyasi,
Baqtriya-Marg'iyona arxeologik kompleksi (BMAK), Gonurtepa,
Mirshodi,
Anov,
Sarazm-4.

Qadimgi Baqtriyaning bronza davri yodgorliklari tarixi rivojlangan shahar madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy jarayonlari bilan birgalikda madaniy jarayonlari ta'bir joiz bo'lsa, haykaltaroshlik badiiy san'atining rivojlanishi bilan o'ziga xos xususiyatga ega. Ushbu maqolada Jarqo'ton yodgorligidan topilgan inson terrakot-haykalining diniy, ma'naviy, badiiy-uslubiy va antropologik xususiyatlari yoritilgan.

¹ PhD Student, Termez State University. E-mail: ulugbekshaydullayev@gmail.com

Размышления об образе человека на терракотовой статуэтке из Джаркутана

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:


Терракотовая статуэтка
Джаркутана,
Сапаллинская культура,
Кузали,
Мулали,
Бустан,
цивилизация Окса,
Бактрийско-Маргиенский
археологический
комплекс,
Гонур-депе,
Миршади,
Анов,
Саразм-4.

Памятники бронзового века Древней Бактрии имеют свои особенности с развитием городской культуры, социально-экономических, религиозных процессов, то есть развития искусства скульптуры. В данной статье описываются религиозные духовные, художественно-стилистические и антропологические особенности терракотовой статуэтки человека, найденной в памятнике Джаркутан.

KIRISH

Haykaltaroshlik san'ati insonlarning diniy-mafkuraviy, ma'naviy, idealogik qarashlari mahsuli bo'lib, san'atning eng muhim ajralmas qismi sifatida qaraladi. San'at qadimdan din bilan bog'liq holda rivojlanib keldi, diniy-mafkuraviy vazifalar bilan birgalikda o'zida badiiy estetik his-tuyg'ularni ham aks ettirdi. Shunday san'at namunalaridan biri Jarqo'ton yodgorligidan topilgan terrakot inson haykalchasidir. Jarqo'tonda ajdodlar ruhiga ibodat qilish diniy e'tiqodining mavjud bo'lganligini bu yerdan topilgan, yaxshi qorilgan, oddiy loydan yasalgan ikkita embrion shaklli, homilador ayolning qorin qismi va erkak kishining byust haykali misolida kuzatish mumkin [1].

Janubiy Turkmanistonda Nomozgoh, Shimoliy Afg'onistonda Dashtli, Janubiy O'zbekistonda Sopoli madaniyatining o'rganilishi O'rta Osiyo arxeologiya fanidagi eng katta fan kashfiyotlaridan biri bo'lib, Amudaryo yuqori oqimi havzasining bronza davri tarixi to'g'risida juda katta ilmiy ma'lumotlar to'plandi [2]. V.I.Sarianidi o'zining so'nggi chop etgan maqola va kitoblarida bu madaniyatlarni umumlashgan nom bilan Baqtriya-Marg'iyona arxeologik kompleksi (BMAK) deb atadi (1-rasm) va bu termin ko'plab tadqiqotchilar tomonidan qabul qilinmoqda [3; 4; 5]. Ushbu madaniyatlarning moddiy manbalari ilmiy adabiyotlarda to'liq yoritilgandan so'ng chet ellik arxeologlar mazkur madaniyatlarga nisbatan "sivilizatsiya" iborasini qo'llay boshlashdi. Amerikalik professor K.Lamberg-Karlovskiy birinchi bo'lib "Oks sivilizatsiyasi", italiyalik professor M.Tosi va o'zbek arxeologi T.Sh.Shirinov o'z asarida "Turon sivilizatsiyasi" iboralarini ishlatmoqda [6].



1-rasm. Baqtriya-Marg'iyona arxeologik kompleksi (BMAK) xaritasi

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sopolli madaniyati yodgorliklari Surxondaryo viloyatining Sherobod va Sho'rchi tumanlarining uch zonasi hududlarida joylashgan. Yodgorliklarning birinchi guruhi Ulonbuloqsoy daryosining o'zanlari hududlari bo'ylab, ikkinchi guruhdagi yodgorliklar Bo'stonsoy daryosining bo'ylarida paydo bo'lgan va uchinchi guruhdagi yodgorliklar esa Qizilsoy daryosining o'zani bo'ylab joy olgan[1].

Sopolli madaniyati 1960-yillar oxiridan boshlab o'rganib kelinmoqda, ya'ni bu 1968-yil Sopollitepa yodgorligining L.I.Albaum tomonidan topilishi va 1969-1974-yillarda A.A.Asqarov tomonidan tadqiq etilishi bilan bevosita bog'liqdir. O'zFA Arxeologiya institutining akademik A.A.Asqarov rahbarligidagi ekspeditsiyasi tomonidan dastavval Sopollitepa, so'ng Jarqo'ton kabi yodgorliklar o'rganilgach, ilk o'rganilgan yodgorlikka nisbat berilib, mazkur madaniyatga Sopolli madaniyati deya nomlandi [7].

Jarqo'ton yodgorligidan keyingi 20 yil davomida topilgan qo'shimcha materiallarni Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi yodgorliklari bilan qiyosiy solishtirgan A.A.Asqarov va Sh.B.Shaydullayev Sopolli madaniyati bosqichlarini: Sopolli 2150-1900, Jarqo'ton 1900-1600, Ko'zali 1600-1500, Mo'lali 1500-1400, Bo'ston 1400-1300 yillar bilan davrlashtirishni taklif qilganlar [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida zamonaviy fan rivojlanishining qonuniy tendensiyasi - fanlararo yondashuv usulidan foydalanilgan. Maqola umumqabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston-Germaniya arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 1994-2003 yillarda Jarqo'ton yodgorligida qazishma ishlari olib borildi [9]. Qazishma natijasida bu

yodgorlikdan loydan yasalgan ikkita embrion shaklli, ikkiqat ayolning qorin qismi va o'lgan erkak kishining byust haykali topilgan (2-rasm).



2-rasm. Inson byust terrakot-haykalchasi (1a va 1b); homilador ayolning qorin qismi gavdalangan haykalcha (2a); embrion shaklli haykalchalar (3a va 3b)

Topilmalarning hammasi yaxshi qorilgan loydan yasalgan. Embrion deb mushohada qilinayotgan loydan yasalgan topilma dumaloq shaklda bo'lib, ularning soni ikkita. Birinchisi kichikroq hajmda (diametri 7sm), atrofi qizil rang bilan bo'yalgan, ikkinchisi esa biroz kattaroq bo'lib, tashqi tarafdin inson ko'zi va qulog'i qora rang bilan chizilgan, loy massaning o'zi esa qizil rang bilan bo'yalgan.

Ayol kishining qorni, uning homiladorligini anglatish uchun bo'rttirib, dumaloq qilib ishlangan. Saqlanib qolgan ikki qo'li esa qorni ustiga qo'yilgan holatda tasvirlangan. Ikki qo'li bilan qorni o'rtasida ikkita ilonning harakatlanib borayotgan holati ifodalangan. Qorin va qo'lning ayrim joylari qizil bo'yoq bilan bo'yalganligining guvohi bo'lishimiz mumkin [10].

Ushbu haykalchalarning topilishini biz ajdodlar ruhi din sifatida ifodalanishining arxeologik kuzatilishi deb hisoblaymiz. Homilador ayol qornining ayrim qismlari qizil rang bilan bo'yalishi, qo'l bilan qorin oralig'ida ikki ilonning tasvirlanishi u dunyo mavjudlik tushunchasini beradi. Ma'lumki, qizil rang qonni, ilon timsoli esa yer osti xudoligini belgilaydi. Mavjud azob-uqubatlardan homilador ayolni "ajdodlar ruhi qutqara olishi mumkin" degan fikrga kelamiz.

Mazkur haykalchalar ayni vaqtda Termiz davlat muzey-qo'riqxonasidagi bronza davri bo'limining eksponatlari qatoridan o'rin egallagan.

Haykal yaxshi qorilgan oddiy loydan yasali, quyoshda quritilgan ammo olovda pishirilmagan, shu sababli haykal yaxshi holatda saqlanmagan. Bu tipdagi haykallar asosan bronza davri qabrlaridan topilgan.

Sopolli madaniyatining Sopolli bosqichi davrida kenotaf qabrlarda bedarak yo'qolgan marhum o'rniga qo'zichoqni ko'mish odati uchragan bo'lsa, ilk Jarqo'ton davridan boshlab marhumning jismi o'rniga matodan yasalgan qo'g'irchoq yoki xom loydan yasalgan odam haykalchasini ko'mish odati paydo bo'ldi [11].

Sopollitepa yodgorligida bevosita arxeologik izlanishlar olib borgan arxeolog A.A.Asqarovning guvohlik berishicha, kenotaf qabrlarga bedarak yo'qolgan jasad o'rniga matodan yasalgan qo'g'irchoq yoki xom loydan yasalgan marhumning ramziy haykalchasi qo'yilgan. Matoli qo'g'irchoq chirib ketganligi bois, ularning uchrashi kuzatilmaydi. Ammo xom loydan yasalgan ramziy haykalchalar kenotaf qabrlarning №40 va №71 mozorlarida uchraydi [12].

Jarqo'ton ibodatxonasining xo'jalik-xizmat qismidan ham odam haykaliga o'xshash, loydan yasalgan lekin olovda pishirilmagan ustiga qizil bo'yoq (angob) bilan bo'yalgan haykalchalar topilgan. Jarqo'ton yodgorligida alohida ibodatxona inshooti va qabristonning paydo bo'lishi esa Sopolli madaniyatining Ko'zali bosqichiga to'g'ri keladi [13]. Demak, Jarqo'ton odam byust haykali Sopolli madaniyatining Ko'zali yoki Mo'lali davrlariga tegishli degan xulosaga kelish mumkin, hamda bu turkumdagi haykallar kenotaf qabrlar uchun marhum o'rnini bosuvchi ashyo yoki boshqa diniy urf-odatlar maqsadida tayyorlangan.

Jarqo'ton byust haykalchasi kuydirilmaganligi uchun asl holicha saqlanmagan, haykal sinib bo'laklarga bo'linib ketgan, quloqlari va burni sinib, sho'rlanish natijasida yemirilib ketgan, balki o'sha davr diniy urf-odatiga binoan inson tomonidan atayin sindirilgan bo'lishi ham mumkin (3-rasm A).

Haykalning sinib qolgan qismlari BMK-5 yelimi yordamida biriktirilgan, haykalning burni qayta tayyorlanib, singan burni o'rniga yopishtirilib restavratsiya qilingan (3-rasm B). Haykal restavratsiyasidan so'ng uning asli qisman qiyofalandi. Uning yuziga qizil bo'yoq bilan, soch, soqol, kiprik va qosh qismlariga qora bo'yoq bilan rang berilgach, bu haykalda erkak kishi qiyofasi tasvirlanganligi oydinlashdi [14].



3 A-rasm



3 B-rasm

Haykal restavratsiya qilingan bo'lsa-da, quloq qismining yarmi yo'q, burun shakli umumiy bajarilgan, yaxshi ishlov berilmagan, obyekt ranglari o'chib ketgan, bilinar-bilinmas holga kelgan. Jarqo'ton odam haykalini yasagan usta haykaltarosh o'z davri uchun mohir bo'lgan, haykal simmetriya qonuniyatlari asosida yasalgan, yuz tuzilishini tasvirlashda real va hayotiy obrazlarga intilish seziladi. Burun va ko'zlar gorizontal holatda, ko'z, quloq, burun, og'iz, iyak qismlar vertikal holatda aniq joylashtirilganligi

guvohi bo'lishimiz mumkin. Ko'z shakli yumuq holatda tasvirlangan, ko'z bilan qosh orasi ichkariga biroz kirgan, burun shakli tor va uzun, qirra burun shaklini ifodalaydi. Haykalning og'zi o'rtacha kattalikdagi ochiq holatda tasvirlangan, lekin og'zining lab qismi ifodalanmagan. Iyak qismi uzun, og'ziga to'g'ri moslashtirilgan. Ammo haykaltaroshimizning bu san'at asarida anatomik kamchiliklar ham yo'q emas. Haykalning peshona qismi nihoyatda qisqa, qoshiga bosh qismi birlashib ketgan. Yuz qismida yonoq suyaklari tasvirlanmagan, yonoq o'rni ichkariga kirgizilib ishlangan. Boshining orqa tarafi pachoqlashib ketgan, shakl jihatdan yalpoqlashtirilgan. Bo'yin qismi ham haykalning boshiga mos emas.

Jarqo'ton byust haykalchasida vafot etgan insonning real obrazi badiiylashtirilgan. Haykalda anatomik tuzilishiga ko'ra yevropoid qiyofali inson tasvirlangan. Bronza davriga tegishli Sopollitepa va Jarqo'ton qabrlarining o'rganilishi natijasida Sopolli madaniyatining aholisi antropologik kelib chiqishi jihatidan yevropoid irqining Sharqiy O'rtayer dengizi tarmog'iga mansubligi aniqlangan va buni o'rganayotgan haykalimiz ham dalil sifatida tasdiqlamoqda [15].

Sopolli madaniyati vakillari tomonidan real obrazlarning haykaltaroshlikda qo'llanilishi ularning bronza davrining Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi markazlari bilan bevosita xalqaro madaniy aloqalar bog'laganliklarini ifodalaydi [16].

Qadimgi Mesopotamiyadagi Akkad podsholigi davri (mil.avv. XXIV-XXII asrlar) haykaltaroshligida real badiiylashtirilgan obrazlar ilk bor paydo bo'ladi va bu davr namunalari odam obrazi hayotiy va anatomik jihatdan aniq ifodalanган. Biz bu jarayonni hukmdor Sargon I ning qadimiy byust haykalchasida ko'rishimiz mumkin.

Sopolli madaniyati bilan genetik aloqador qadimgi Oks sivilizatsiyasining boshqa Janubiy-g'arbiy Turkmaniston, ya'ni Marg'iyona o'lkasi va Shimoliy Afg'oniston hududlarida joylashgan bronza davriga mansub yodgorliklaridan ko'plab olovda pishirilmagan terrakot inson haykalchalari topilgan [17]. Ular tayyorlanish uslublariga va qanday xomashyodan yasalganligiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

V.M.Masson va V.I.Sarianidilarning fikriga ko'ra, Nomozgoh I (mil.avv.4000-3900), Nomozgoh II (mil.avv.3800-3200), Nomozgoh III (mil.avv.3100-2800) bosqich davri haykalchalari uchun realistik uslubdagi odam obrazlari xos bo'lsa, Nomozgoh IV (mil.avv.2700-2400), Nomozgoh V (mil.avv.2300-2000), Nomozgoh VI (mil.avv.1900-1500) davri haykalchalari uchun qo'l va oyog'i tasvirlanmagan sxematik uslubdagi odam obrazlari xosdir. Bu sxematik uslub ma'lum bir sivilizatsiyaning inqirozini emas, balki shu davr diniy qarashlarini va urf-odatlarini ifodalovchi mahalliy ustalar tomonidan qoliplashtirilgan uslubdir, degan fikrni ta'kidlab o'tadilar [18].

Bronza davri Janubiy-g'arbiy Turkmaniston yodgorliklaridan qo'l va oyog'i tasvirlanmagan sxematik yasalgan terrakot ayol haykalchalar juda ko'plab topilgan [19]. Jumladan, eneolit va bronza davriga oid Ashxobod yaqinidagi (Turkmaniston) Anov manzilgohida amerikalik geolog R.Pompelli va ingliz arxeologi Shmidt tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ayol haykalchalar topib o'rganilgan.

Shuningdek, Sarazm-4 yodgorligidagi qabrda ayol kishiga mansub mayit yonidan topilgan bir nechta turdagi dafn ashyolarini uchratishimiz mumkin. Ular orasida ikkita ayol ma'budasining terrakot-haykalchalari diqqatga sazovordir.

Bu turkumdagi haykalchalar bronza davri Oks sivilizatsiyasi kishilarining diniy marosimlari uchun yasalgan. Arxeolog olimlarning fikricha, haykalchalarda ayol qiyofali

hosildorlik va unumdorlik ma'budalar ifodalangan. Bunday haykalchalarning aksariyat siniq bo'laklari ritual o'choqlar yonidan ham topilgan.

Haykalchalarning turli usulda yasash jarayoni haqidagi N.Xlopin fikriga ko'ra, ushbu davr haykalchalari shoshilinch tarzda loydan tayyorlanib, olovda to'liq pishirilmagan yoki chala pishirilgan. Bo'yoqlar bilan har xil detallar tushirilgan. Mazkur haykalchalar bir martalik diniy marosim uchun foydalanish maqsadida tayyorlangan.

Janubiy Turkmanistonning Murg'ob dehqonchilik vohasidagi Gonur va Shimoliy Afg'onistonning Dashtli madaniyati qabrlaridan topilgan qora tosh va qimmatbaho marmardan badiiy did bilan ishlangan real tasvirli, antropologik jihatdan semit qiyofali inson haykalchalari uslub va genetik jihatdan Qadimgi Mesopotamiya yodgorliklari bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Shuningdek, Janubiy O'zbekistonning ilk temir davriga oid Mirshodi yodgorligidan ham erkak qiyofali haykalcha topilgan. Bu byust haykalcha anatomik jihatdan hayotiy va real uslublashtirilgan bo'lib, Jarqo'ton inson haykalchasidan farqli jihati u loydan emas, balki qora toshdan yo'nib yasalgan. Undagi obraz yumaloq boshli, keng yuzli, bodom qovoqli qilib tasvirlangan.

Mirshodi inson haykalchasi yasash uslubi jihatidan Jarqo'ton inson haykalchasiga o'xshab ketadi, ayniqsa, bu o'xshashlik ko'zlari va og'zining tasvirlanishida yaqqol namoyon etilgan. Mirshodi haykalchasining topilishi Jarqo'ton terrakot-haykalchasining yasash uslubi keyingi davrda ham davom etganligini ta'kidlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan ilmiy dalillardan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Gonurtepa va Dashtli madaniyati yodgorliklaridagi qabrlardan topilgan terrakot-haykalchalari uslub va genetik jihatdan Qadimgi Mesopotamiya yodgorliklari bilan bevosita bog'liq. Bunday xulosaga kelishimizga sabab, bu yodgorliklardan semit qiyofali inson haykalchalarining topilishidir.

2. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasida ilk bor real badiylashtirilgan inson obrazi qadimgi Mesopotamiyada mil.avv. XXIV-XXII asrlarda paydo bo'lgan. Bu xronologik davrni belgilashimizga hukmdor Sargon I haykalchasining topilishi asos bo'ldi.

3. Mirshodi inson haykalchasining topilishi Jarqo'ton terrakot-haykalchalarining yasash uslubi keyingi davrda ham davom etganligini ko'rsatadi.

4. Janubiy Turkmanistonning Nomozgoh madaniyatida Nomozgoh III davri oxiridan boshlab haykalchalarda ayol obrazi o'rnini erkak obrazi egalladi. Bunga Qoratepadan topilgan harbiy erkak haykalchasi guvohlik beradi.

5. Qo'l va oyog'i tasvirlanmagan sxematik uslubdagi inson obrazi terrakot-haykalchalarda Nomozgoh IV (bronza) davridan aks ettirilgan.

6. Jarqo'ton yodgorligidan bu turdagi haykalchalarning topilishi va undagi ramziy timsollar ajdodlar ruhi din sifatida ifodalanganligini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шайдуллаев Ш.Б. Этапы возникновения и развития государственности на территории Узбекистана. Автореферат дис...д.и.н. – Самарканд, 2009 – С.28

2. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. МИА73. Ленинград, 1959

3. Аванесова Н.А. Новые материалы эпохи бронзы Зарафшанской долины // Археологические исследования в Узбекистане 2001 год. Самарканд, 2002.

4. Кузмина Е.Е. Откуда пришли Индоарии? М.,1994
5. Сарианиди В.И. Некрополь Гонура и иранское язычество. Москва,2001
6. Lamberg-Karlovskiy C.C. The Bronze Age khanates of Central Asia. Antiquity 68, 1994. P.398-405
7. Аскарлов А.А. Сапаллитепа. Ташкент,1973.
8. Asqarov A.A., Shaydullayev Sh.B. Baqtriyaning bronza va ilk temir davri madaniyatlari xronologiyasi // O'zbekiston tarixi moddiy madaniyat va yozma manbalarda.- T.,2005.
9. Xurramov X.B. Oks sivilizatsiyasi tarixshunosligi (Germaniya olimlari tadqiqotlari misolida). PhD diss...avtoref.Termiz.2023
10. Boqiyev A., Shaydullayev A., Yo'ldosheva Z. Oks sivilizatsiyasi .-Toshkent, 2015. B.118
11. Ионесов В.И. Становление и развитие раннеклассовых отношений в оседлоземледельческом обществе Северной Бактрии. Дис...канд.ист.наук.- Самарканд, 1990.-С.96
12. Аскарлов А.А. Бронзовый век Южного Узбекистана (к проблеме возникновения локальных очагов древневосточных цивилизаций). Автореф.дис...д-ра.ист.наук.-М., 1976.-С.10-11.
13. Аскарлов А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан. Ташкент,1983
14. Toshturdiyev Sh.Sh. Jarqo'ton inson portreti // Academic Research in Education Science jurnali // 2021,-B.1421.
15. Алексеев В.П.,Аскарлов А.А,Ходжайов Т.К. Историческая антропология Средней Азии.Т,-1990
16. Abdullayev N.U. San'at tarixi. T-1.Toshkent,1987.
17. Массон В.М. Алтын-Депе // Труды ЮТАКЭ. Том XVIII. Л.,1981
18. Массон В.М.,Сарианиди В.И. Среднеазиатский терракота эпохи бронзы. М.,1973
19. Сарианиди В.И. Гонур-Депе город царей и богов. Ашхабат.2005.